

## SHARQ GRAFIKA SAN'ATIDA MAISHIY JANRNING O'RGANILISHI

**Zarifova Dilfuza Omon qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI,

Dastgoh va kitob grafikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** *Mavzuning qiyosiy taxlili shu bilan belgilanadiki, unda ish jarayonida grafika san'atining shakllanish tarixi, bugungi kundagi o'rni va Sharq va g'arb grafika san'atida maishiy janrning o'rni hamda ijodkorlar ijodi chuqur tahlil qilinadi. O'zbekiston grafik rassomlari ijodi va ularning uslublari o'r ganib chiqilgan. Mazkur mavzuni to'liq yoritishga qaratilgan bu maqola bo'lajak grafik rassomlar o'zlashtirishi lozim bo'lgan Sharq va g'arb grafika san'atida maishiy janrning o'rni haqida yoritilgan, shuningdek, amaliy ishlashga o'rgatish usullari kabi masalalarga qaratilgan.*

**Аннотация.** Сравнительный анализ темы определяется тем, что в ходе работы исследуется история становления графического искусства, его место сегодня, роль бытового жанра в восточной графике, творчество творцов. глубоко анализируется. Изучено творчество художников-графиков Узбекистана и их стили. В данной статье, целью которой является полное освещение данной темы, освещается роль бытового жанра в восточной графике, которым должны овладеть будущие художники-графики, а также акцентируется внимание на таких вопросах, как методика обучения практической работе.

**Annotation.** *Annotation. The comparative analysis of the topic is determined by the fact that in the course of work, the history of the formation of graphic art, its place today, the role of the domestic genre in the graphic art of the East, and the creativity of creators are deeply analyzed. The work of graphic artists of Uzbekistan and their styles have been studied. This article, which aims to fully cover this topic, sheds light on the role of the domestic genre in Eastern graphic art, which future graphic artists should master, and also focuses on issues such as methods of teaching practical work.*

**Tayanch iboralar.** Xattot, mo'zaxxib, muqovasoz, jadvalkash, qo'lyozma, litografiya, ksilografiya, lirklik, poetiklik, mustahdam.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda badiiy ijodning boshqa turlari qatori tasviriy san'at sohasi rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

“Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydi. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz”.<sup>1</sup> Ayni vaqtida hozirgi jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan davrning o‘zi tasviriy san'at sohasini yanada taraqqiy ettirish, uning bugungi kundagi o‘rnii va mavqeini oshirishni talab etayotganini e’tirof etish lozim.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston tasviriy san'atida katta yevrilishlar sodir bo‘ldi. Milliylikka e’tibor, qadriyatlarimizga hurmat-ehtiromni yuksala borishi o‘z ifodasini topdi va tasviriy san'at olamiga ham ta’sir etdi. Asrlar davomida doimo ardoqlab kelingan milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz bir necha asrlardan beri san'at olami ijodkorlarini diqqat markazida bolib kelmoqda. Ularga bag‘ishlangan turkum asarlarni yaratilishi ularga bolgan hurmat-ehtiromni oshib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Mustaqillik sharofati bilan yuzaga kelgan ijodiy erkinliklar o‘zbek grafika san'atida ijod qiluvchi rassomlar asarlarida ham yangi ifoda vositalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Aynan shunday holatlar rassomlarimiz dunyoqarashini o‘zgartirib yubordi. Shuningdek, o‘zining betakror san'atiga ega bo‘lgan taniqli va yosh rassomlar shular jumlasidandir. Ularning ijodiy jarayonining rivojlanish davri zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san'atining 70-80 yillarga to‘g‘ri keladi. Ularning ijodiy faoliyati izlanuvchilar tomonidan o‘rganilgan, bo‘lsa-da, ammo keng doiradagi ilmiy-tadqiqod ishlari olib borilmagan. Ular tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz mavzusidagi qator asarlari nafaqat umumiyligi kataloglarda balki, gazeta-jurnallar sahifalaridan ham o‘rin olgan. Shuning uchun bugungi badiiy jarayonda maishiy mavzuda ijod qilgan va qilayotgan grafik rassomlarning ijodini qaytatdan chuqurroq o‘rganish, qolaversa ularning ijodidagi milliylikning o‘ziga xosligini hamda yaratgan asarlaridagi tub burilishlar va ularning zamonaviy san'at bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish mukammal dolzarb muommolardan biri deb topildi. Nafaqat O‘zbekiston balki jahon tasviriy san'at xazinasidan munosib o‘rin olgan grafika san’ati Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosi hamdir. U qadimgi nodir qo‘lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur asarlardagi ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari, oliyjanoblikka bo‘lgan intilish, go‘zallik to‘g‘risidagi tasavvurni ifodalashga

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqi.

ham xizmat qilgan. Turli san'atkorlar - xattot, rassom, mo'zaxxib, muqovasoz, jadvalkash va boshqalarning ijodii hamkorligida yaratilgan nodir qo'lyozmalar o'sha davr madaniy, ijtimoiy hayotini badiiy-estetik qarashlarini o'rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

XX asr jahon grafikasining yetuk namoyandalari: P. Picasso, J. Eiffel (Fransiya); R. Guttuso, G. Mukchi (Italiya); F. Mazerel (Belgiya); X. Bidstrup (Daniya); R. Kent (AQSH); G. va L. Grunding, O. Nagel, V. Klemke (Germaniya); T. Kulisevich, Yu. Mroshchik (Polsha); D. Moor, V. Deni, V. Favorskiy, A. Ostroumova Lebedeva, Kukrinikslar (Rossiya) va boshqalar.

O'zbekistonda grafika san'ati XX asrda shakllandi va rivojlandi. Maishiy janrda bugungi kunda ko'plab rassomlar ijod qilib kelmoqda.

Maishiy janr ishtirokchilarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega bo'lib obrazlar xarakteri odatda janrlar vositasida yechim topadi. Musavvirlarning maishiy janrida ko'p figurali kompozitsiyalar real rang yechimi bo'lgan asarlar yartilishda o'tmish voqealari va tabiat manzaralari ilhomlantiradi. Kartinalarda faqat tarixiy, qahramonona voqea va hodisalarnigina emas, balki oddiy hayotni ham tasvirlash mumkin. Bunday kartinalar maishiy janr asarlari hisoblanib, ko'pincha ular janqli rangtasvir asarlari deb yuritiladi. Asosan bu voqealar rangtasvir polotnolarida tasvirlanadi, lekin ularni grafikada va xaykaltaroshlikda ham uchratish mumkin.

Rassomlar I. Ikromov, V. Kaydalov, L. Abdullayev, T. Muhammedov, K. Nazarovlar kitob bezaklari, Q. Basharov ilk kitob suratlari va ajoyib linogravura asarlari bilan o'zbek tasviriy san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar va o'zbek grafika mакtabining vujudga kelishiga zamin yaratdilar.



*Q. Basharov "Anor"*

XX asrning oxirgi choragida ijodkorlar safiga M. Kagarov, L. Ibrohimov, M. Sodikov, A. Mamajonov, A. Bobrov, V. Apuxtin, F. Basharova, A. Li, G. Li kabi rassomlarning kelib qo'shilishi grafikani ham badiiy mahorat, ham mavzu jihatdan boyishini ta'minladi. O'zbek grafikachilari grafikaning barcha sohalari (akovarel, litografiya, ksilografiya va boshqalar)da samarali ijod qilib, mavzu jihatdan rang-barang (tarix, zamonaviylik, ekologiya va boshqalar) asarlar yaratmoqdalar, jahon va o'zbek mumtoz adabiyotiga, Sharqning buyuk arboblari, yozuvchi va olimlari siymolariga murojaat qilmoqdalar.

O'zbekiston rassomlari namoyon etgan yuksak badiiy tafakkur madaniyatining, ular butunligining go'zalligi qarama-qarshi elementlarning jo'shqin murakkab tizimi sifatida ochib beriladigan yangi sintez, yangi «ma'naviy» uyg'unlikni yaratishga qo'shgan hissa dastgox san'ati uchun ham ahamiyatli ekanligini isbotlab o'tirishning xojati yo'q. Dastgox san'atida, tabiiyki, bu masalalarning hammasi birmuncha bilvosita ko'ndalang bo'ladi.

San'atning ushbu turiga xos bo'lgan mazmun va shakl birligi nuqtai-nazardan qilingan tahlil grafika asarlar ramziy ma'noga ham egaligi to'g'risidagi fikrga olib keladi. Grafikaning shakli va obrazlarini yuzaga keltirgan uslubiy vazifalardan ma'no vazifalariga o'tishning tahlili qiyin, biroq, mumkin va u hodisalar mohiyatini to'liqroq tushunib olish uchun zarur. Grafika asarlarning ma'no-mazmunli, badiiy obrazli ifodalilikning yuqori bosqichiga ko'tarilgan didaktik mohiyatiga kirib borish ularning ahamiyatini tushunish, kishilarning alohida ichki dunyosiga kirish, o'z ko'zi bilan ko'rishning o'ziga xos sharqona muattar hidini hamda lazzatini xis qilish, vaqt o'tgan sari grafikalar qanday o'zgarganligini va qayta anglanganini kuzatish imkonini beradi.

Hozirgi grafika rangtasvirga O'zbekiston badiiy hayotining xilma-xil turlari, janrlari, yo'nalishlari, izlanishlari, rivojlanishi va hatto bozor talablari oshib borishi umumiy jarayonidan ajratib qarab bo'lmaydi. Hozirgi Sharq grafika uslubi meros qilib olinibgina qolmay yaratildi, vujudga keldi va rivojlandi ham. Badiiy vositalar elementlari, vaqt tarkibi o'zgardi, biroq, yopiqqliq, liriklik va poetiklik qatlamlari ushbu san'at janrining uziga xos jixatlarini belgilovchi sifatida doim mavjud bo'lgan. Ko'p asarlarda hodisalar rivoji yo'q, ozgina detallar bo'lib, o'tgan hodisaga ishora qilgandek bo'ladi. Bularning barini rassomlar ranglar ko'lankasi salmog'i, kompozitsion vazminlik orqali ifodalashadi. Obrazlar musiqiy yakunlanganligi, zamononing voqeaga boyligi, mahobatli maromi tufayli ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Grafikalar kompozitsiya yechimiga erishishda inson va xayvonni nafis tasvirlashdan tortib, butun tasvirni nozik o'rab olgan naqshgacha bezash bilan boyitilgan. Hatto kompozitsiya bo'shliqlar ham sipo va puxta bezatilgan. Lirik va poetik holatning bir-biri bilan boqliqligi kompozitsiyada harakat kuchi hamda ritm

xususiyatini belgilab beradi. Gafika asalarida bezaklar nafis obrazlarga aylanadi. Tuzilishiga ko‘ra naqshinkor bo‘lgan bu obrazlar aniq, voqealardan keltirib chiqariladi. Vaqt (zamon) go‘yo uzining turli o‘lchamlarida iskanjaga olingandek tuyuladi, ta’sir, keskinlik, ya’ni voqeiy o‘tmish bilan hozirgi zamon shaxsiy kechinmalarining yaqinlashuvi shundan yuzaga keladi. Lirik va poetik zamon qatlamlari aniq, ifodasini topgan.

Hozirgi o‘zbek grafikachi rassomlari ijodida ko‘zga tashlanadigan ritmlarning qat’iy jo‘shqinligi obrazlarning emotisional hamda realistik keskinligi O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo grafikasida bo‘lmagan, deb ishonch bilan aytish mumkin. Grafikada makon yorug‘lik va havo bilan to‘liqdek tuyuladigan, ritm qonuniyati amal qilib turgan teranlik kasb etadi. Ko‘plab grafikalardagi ravon, silliq chiziq, alohida shakl erkinligini yuzaga keltiradi, rangli dog‘lar ko‘lankasini kengaytiradi, ularni makonda ifodalili qiladi. Ba’zan rassom makonni ataylab qisqartiradi, uni yuqoriga siljitadi, natijada kompozitsiya ritmi yanada keskinlashadi, obrazlarga aloxida jiddiylik hamda ifodalilik baxsh etiladi.

O‘rta asrlar Sharq grafiika asarlari qahramonlari olis o‘tmish muammolarini kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning muhabbatni, kurashi, ehtiroslari, orzu-umidlarini yorqin ifodalagan. Rassomning urf-odatlar va din bilan belgilangan faoliyati ijtimoiy munosabatlarning yagona yopiq tizimiga kiritilgan.

San’atning rivojlanishi esa umumiyligi uslub me’yorlari hamda qoidalari bilan belgilangandi. Ko‘plab voqealarga boy hozirgi suronli kunlarda zamon tezlashganligi oshganday tuyuladi. San’atda aynan hozir ziddiyatlar uchun ochiq, barqarorlikdan va qoida tarzidagi ideal yaxlitligidan mahrum olamning «mumtoz bo‘lmagan» obrazi amal qilmoqda.

Hozirgi rassomlarning ko‘philigi o‘z grafiika asarlarida adolatli (haqqoniy) voqelikdan an’analarning birmuncha barqaror olamiga, vaqt go‘yo to‘xtagan, go‘zallik va she’riyat hukm surayotgan, aldovlar bo‘lmagan, yolg‘on jazosini topadigan, xis-tuyg‘u mustahdam va barqaror, muhabbat abadiy bo‘lgan, kamchiliklar esa kulgi ostiga olinadigan, haqiqat tantana qiladigan, shavqat, jasorat va mardlik e’tibor topadigan olamga bosh olib ketishga intiladilar.

Tasvirlanayotgan voqealar ishonardi ifodalananishiga qaramay, ular hozirgi grafiika ustalari tomonidan romantik orzular va go‘zal xayollar og‘ushida talqin qilinadi. Ularning asarlari o‘rta asrlar Sharq olamining in’ikosigina emas va real voqeylek ifodasigina emas, u ko‘proq, har ikkalasining aql bovar qilmaydigan, biroq har bir musulmonga dil-dilidan milliy, yaqin va qadrdon bo‘lgan, o‘tmishning, hozirning va keljakning boqiy kategoriyalarini aks ettiradigan olamda birikib ketishidir.

Xulosa sifatida, ushbu mavzu orqali sharq grafika san'atining shakllanishi va bugungi kundagi o'rni, badiiy jarayoni, uning salohiyatini tarixga muxrlanadi deyishimiz mumkin. Shundat ekan, grafika san'atining mohiyatini anglash, ijodkorlarning ijodiga baho berish va dastlabki xulosalar chiqarishda xam yuqoridagi me'zonnarni inobatga olish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyaev. Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining undalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga big'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi prezidenti nutqi". Xalq so'zi gazetasi. 2017 y. 16 fevral, №11.
2. Abdullaev N.U. «San'at tarixi». Toshkent, O'qituvchi, 1986 y. (5-19)
3. "Amir Xusray Dexlaviy asarlariga ishlangan rasmlar". – T.: Fan, 1983.
4. Zigonshina T. "O'zbekistonda san'at va madaniyat" G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – T.: 1978. S – 160 s.
5. "Rassom va kitob". G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot. – T.: 1987 s – s.